



Sarisioy

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

19 sentabr 2025 yil. Juma № 34 (8214)

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

(Gazeta 1932 yildan «Sariosiyo haqiqati» nomi bilan chiqa boshlagan)

BIZ YOSHLARIMIZNI NAFAQAT ZAMON BILAN HAMNAFAS, BALKI KELAJAKKA TAYYOR QILIB TARBİYALASHIMIZ KERAK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 15 sentabr sanasida O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI arafasida soha xodimlari bilan muloqot o'tkazdi. Respublikamiz hududlaridan 40 mingdan ziyod pedagoglar muloqotga ulandi.

Viloyatimiz markazi Termiz shahrida tashkillashtirilgan ochiq muloqotda tumanimiz vakillari guruhi ham qatnashdi. Tadbir yakunida viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov muloqot ishtirokchilarini yaqinlashayotgan kasb bayramlari bilan tabrikldi va bir guruh ilg'or pedagoglar viloyat hokimligining Faxriy yorliqlari hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Sariosiyoликlardan 34-bog'cha rahbari F.A'zamova, 26-maktab o'qituvchisi M.Nosirova mukofotlanishdi.

“Ta'lim sifatini oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Zero, Yangi O'zbekistonda eng muhim soha—ta'lim, eng hurmatli insonlar—o'qituvchi va murabbiylardir”. SH.MIRZIYOYEV

MAS'ULIYAT HISSI YANADA OSHADI

Prezidentimiz ochiq muloqotda mamlakatimizda keyingi sakkiz yil mobaynida xalq ta'limi tizimida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan gapirib, ta'lim sifatini oshirish hamda ustozlar va murabbiylarning yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi, deb ta'kidladilar. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasidagi sezilarli yutuqlar qatorida tizimdagi og'riqli nuqtalar borligi ham tilga olindi. Ma'lumotlarga binoan, 2017 yilgacha mamlakatimizdagi 4 mingdan ziyod mahallada bog'cha bo'lmagan, qamrov esa 27 foiz atrofida bo'lgan. Hozirda bog'chalar soni 38 mingga yetkazilib, bolalar qamrovi 78 foizga yetkazilgan. Bog'chalardagi sharoitlar ham har tomonlama talablarga muvofiq darajada. Ta'lim va tarbiya, mashg'ulotlar jarayonlari yuksak saviyada olib borilishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Tarmoq xodimlariga g'amxo'rliklar ham yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Bugunda bog'cha tarbiyachilarining oylik maoshlari deyarli ikki baravarga oshirildi. Jumladan, oliy ma'lumotli tarbiyachilarning oyligi o'qituvchilar, bog'cha rahbarlariniki esa maktab direktori o'rinbosarlari maoshi bilan tenglashtirildi. Davlatimiz rahbari bugunda 7 mingta davlat MTTda ishlayotgan 120 ming tarbiyachilarning 34 foizi o'rta ma'lumotli ekanligini, buning o'z navbatida bog'chadagi tarbiya sifatiga ta'siri borligini hamda tarbiyachilar oylik maoshida tafovut yuzaga keltirayotganini ta'kidlagan holda, bu borada izchil choralar belgilanganini ham ma'lum qildi. Jumladan, tarbiyachilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliygohda o'qish sharoiti yaratiladi. Shu asosda har yili 10 ming tarbiyachining oliy ma'lumot olishlik imkoniyati tug'iladi. Shuningdek, xususiy bog'chalar tarmog'ini rag'batlantirish maqsadida tarbiyachilarning oylik maoshi va boshqa xarajatlarning bir qismi davlat byudjeti hisobidan qoplanishi, xususiy bog'cha tarbiyachilarining o'qishi, malaka oshirishlari uchun imkoniyatlar yaratilishi ham alohida tilga olindi. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimizning “Biz yoshlarimizni nafaqat zamon bilan hamnafas, balki kelajakka tayyor qilib tarbiyalashimiz kerak” degan ilhomboxsh da'vatlari bizlarni kasbimizga, burchimizga nisbatan mas'uliyat hissini yanada kuchaytiradi, albatta.

Farog'at A'ZAMOVA,
34-DMTT direktori

KASBIMDAN FAXRLANAMAN

Ochiq muloqotda yuksak g'urur bilan ishtirok etdim va Prezidentimiz tomonidan jamiyatni rivojlantirishda, Yangi O'zbekistonn buniyod etish hamda Uchinchi renessans avlodlarini voyaga yetkazishda xalq ta'limi tizimi xodimlari roli juda katta ekanligi haqidagi gaplari kasbimga nisbatan faxrni yanada oshirib yubordi. Yurtboshimizning “Xalqimizning kelajagi maktabdan boshlanadi. Chunki farzandlarimizga bilim va tarbiya berishning eng uzoq davom etadigan, kerak bo'lsa, hal qiluvchi bosqichi bu—maktab ta'limidir” degan so'zlari biz pedagoglar zimmasidagi naqadar zavlorli vazifalar, mas'uliyat yotganini ko'rsatib turibdi. Iftixor bilan aytish mumkinki, bugun O'zbekiston jahonga yuz tutgan nufuzli davlatlardan. Dunyo hamjamiyati esa mamlakatimizda barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan ulug'vor ishlarni e'tirof etmoqda. Shu bois ham davlatimiz bilan har tomonlama, jumladan, xalq ta'limi sohasida ham hamkorliklar qilinmoqda, zamonaviy taraqqiyot ishlariga xorijiy investitsiyalar kiritilmoqda. Prezidentimiz ana shunday bir davrda yangi

tehnologiyalarni o'zlashtirish, xorijiy investorlar bilan erkin muloqot qilish uchun chet tillarini o'qitish juda muhimligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Demakki, biz pedagoglar O'zbekistonimizda xalqimiz kelajagini yaratish, dunyo hamjamiyati bilan hamkorliklar qilishda davlat tayanchimiz. Shu nuqtai nazardan ham maktablarda ta'lim sharoitlari tobora yaxshilanmoqda, pedagoglarning yashash va kasbiy mahoratlarini yuksaltirish bilan bog'liq qator imtiyozlar yaratilmoqda. Jumladan, xorijiy til mutaxassislariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday g'amxo'rliklar, albatta, bizlarga katta kuch-g'ayrat bag'ishlaydi.

Men yosh avlodga ta'lim-tarbiya berguvchi pedagog hamda dunyoviy munosabatlarda muhim hisoblanayotgan xorijiy til fani o'qituvchisi ekanligimdan faxrlanaman. Ana shu tuyg'ular meni xalqimizning buyuk kelajagi uchun munosib avlodlarni tarbiyalash yo'lidagi faoliyatimni tobora kuchaytirishimga, Yangi O'zbekiston buniyod etilishining faol ishtirokchisi bo'lishlikka ruhlantiradi hamda fuqarolik burchim hamda kasbiy shijoatim mezoni bo'lib boraveradi.

Ma'rifat NOSIROVA,
26-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

TOPSHIRIQLAR IJROSI TAHLILI

Tuman hokimligida qaror va topshiriqlar ijrosi, jumladan viloyat hokimining tashrif chog'idagi ko'rsatmalari bajarilishiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda olib borilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari, tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari hamda mas'ullarning axborotlari eshitildi. Jumladan, obodonlashtirish ishlari tashkillashtirilishi, “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi ijrosi, sohiqlar tushumining borishi, muammoli kreditlar bilan ishlash, kommunal xizmatlar ahvoli, “Yangi O'zbekiston” massividagi qurilish ishlarining holati kabi masalalar tahlil qilindi. Yig'ilishda tegishli ishlarga mutasaddilarning topshiriqlar ijrosidagi yo'l qo'ygan kamchiliklarini tanqidiy baholanib, hozirgi kunda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar doirasida aniq ko'rsatmalar berildi.

O'z muxbirimiz

2025-yil

15-sentabrdan–
15-oktabrgacha

“YONG'INDAN OGOHLIK”

UMUMMILLIY KOMPANIYASI OYLI



TUMAN HOKIMI, FUQARO MUHOFAZASI BOSHIG'I ABDOQODIR DONAYEVNING M U R O J A A T I

So'nggi vaqtlarda sodir bo'layotgan yong'inlar, aholini iz gazidan zaharlanishi, havo gaz aralashmasining chaqnashi kabi baxtsiz hodisalar tufayli tumanimiz aholisining ko'plab qismi jabr ko'rmoqda. Shu bois, favqulodda vaziyatlar xavfi yuqori bo'lgan kuz-qish mavsumi oldidan yong'in, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish hodisalarini oldini olish maqsadida hukumatning tegishli topshirig'i asosida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2025-yil 15 sentabr kunidagi 327-sonli farmoyishi bilan yurtimizda 2025-yil 15-sentabrdan – 15-oktabrgacha “Yong'indan ogohlik umummilliy kompaniyasi oyligi” deb e'lon qilinib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining hamda siz aziz fuqarolarning zimmasiga yanada mas'uliyat yukladi.

Oldimizda turgan bir oy mobaynida Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan quyidagi yo'nalishlarda profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda har bir tashkilot va muassasa rahbarlari astoydil ko'maklashishlari, kelgusida tumanimizda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarning olini olishda yordam beradi desak adashmaymiz.

-birinchi galda, tuman hududidagi barcha ijtimoiy sohalariga tegishli yotoqxonalar, talabalar uchun moslashtirilgan binolar, ijaraga olingan hovli uylar, kvartiralar va xostellarda yong'in, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish hodisalarining oldini olishga qaratilgan barcha xavfsizlik choralari ishlab chiqilib, tezda tadbiiq etilishi shart;

-har bir mahalladagi yakka tartibdagi va ko'p kvartirali uylarda “xonadonbay” profilaktik ishlarini tashkil etishda mahalla yetiligi, ko'cha oqsoqollari va faollari Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari bilan birga jonbozlik ko'rsatishlari shart;

-qarovchisi yo'q, yolg'iz yashovchi qariya va nogironlar, ruhiy

kasalliklar dispanserlarida ro'yxatda turuvchi va spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan fuqarolar istiqomat qiladigan turar-joylarga daxldor sohalar (Ichki ishlar bo'limi, ijtimoiy himoya agentligi, mahalla yetiligi) orqali aniqlik kiritilib, ularni tekshirish (isitish mavsumida foydalanadigan isitish uskunolari, dudburonlari, maishiy gaz va elektr jihozlarini tegishli tashkilotlarni jalb etgan holda ko'rikdan o'tkazish va kamchiliklarni bartaraf etish) choralarini ko'rish va ushbu toifadagi fuqarolarga yong'inga qarshi yo'l-yo'riq va tushuntirishlar berishda har birimiz faol bo'lishimiz kerak;

-ijtimoiy soha ob'ektlari va tadbirkorlik sub'ektlari ishchi-xodimlari, shuningdek, mahallalarda aholi bilan yong'inlarning oldini olish va sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan yo'l-yo'riq va mashg'ulotlar o'tkazilishi, shuningdek oldimizda turgan kuz-qish mavsumidan bezarar, hech qanday talofatlarsiz o'tishimiz uchun har bir xizmat xodimlari tun-kun shay holatga keltirilishi shart;

-tunda insonlar qoladigan maskanlar (mehribonlik, saxovat va muruvvat uylari, shifoxona va hokazo) hamda qurilish-ta'mirlash ob'ektlaridagi ishchilar uchun tashkil etilgan vaqtinchalik yotoq joylarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish hodisalarining oldini olishni unitmasligimiz kerak;

-milliy boyligimiz “Paxta-2025” yig'im-terim mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlashda bor salohiyatimizni ishga solishda ogohlik ko'rsatishimiz kerak bo'ladi.

Aziz fuqarolar har birimiz ushbu tadbir davomida tumanimizda bittadan fuqaroga targ'ibot ishlarini amalga oshirsak va bundan keyin yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilib yashasak, o'ylaymanki yong'in deb atalmish yov hech birimizga zarar bera olmaydi.

Oila—jamiyatning asosiy poydevori. Undagi totuvlik va birdamlik oila barqarorligi qatorida jamiyat uchun ham manfaatlidir. Faqat afsuski, keyingi paytlarda turli bahonayu sabablar, turmushdagi chigalliklar, ayniqsa, qaynonayu kelinlar o'rtasidagi tushunmovchilik, kelishmovchiliklar tufayli ayrim oilalarda ajrim holatlari ro'y bermoqda.



OILA BUTLIGI MA'NAVY MUHIT BARQARORLIGIGA BOG'LIQ

Nikohlar buzilishiga yo'l qo'ymaslik va oilaviy mojarolar, ko'ngilsizliklarning oldini olishda, albatta, keng jamoatchilik vakillari, mahalla faollari, oqsoqollarning aralashuvi muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan Respublika “Nuroni” jamg'armasi boshqaruvi sentabr oyini—“nizoli oilalarni yarashtiruv oyligi” deb e'lon qilgandi.

Aytish kerakki, shu paytgacha tumanimizda 145 ta ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bor edi. E'lon qilingan oylik mohiyatidan kelib chiqib, “Nuroni” jamg'armasi tuman bo'limi mahallalardagi faollar, oqsoqollar bilan hamkorlikda nizoli oilalarni o'rganish va imkon qadar ularni yarashtirish choralarini ko'rdilar. Buning uchun, avvalo, milliy qadriyatlar, oila muqaddasligi, otayu onaning birdamligi, oiladagi butlik—oradagi farzandlarning barkamol tarbiyalanishi hamda voyaga yetishishining asosi hisoblanishi, ma'naviy muhit, sog'lom turmush tarzi barqarorligi o'zaro munosabatlar mushtarakligiga bog'liq ekanligi kabi mavzularda

keng tushuntirish ishlari olib borildi, ochiq suhbatlar uyushtirildi.

Joylarda tuman hokimligi xotin-qizlar bo'limi (D.Toshmatova) va “Nuroni” jamg'armasi tuman bo'limi (S.Qosimov) tashkilotchiligidan mahallalardagi faollar bilan hamkorlikda manzilli targ'ibot ishlarini olib borish, ma'naviyat, ma'rifiyat mavzularida tadbirlar o'tkazilishi natijasida bugungacha 105 ta oilaning yarashuviga erishildi. Shuning uchun ham qandaydir ko'rsatmalarni kutmasdan, nizoli oilalarni e'tibordan qoldirmaslik, befarq bo'lmaslik va arizmas sabablar tufayli darz ketgan oilalar bilan o'z vaqtida ish olib borishlik hamda oilalar yaxlitligiga erishishda mahalla faollari, oqsoqollarning o'rni alohida ekanligini unutmaylik.

Suratda: “Terakzor” mahallasi faollari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirning lavha.

G.JABBOROVA,
“Nuroni” jamg'armasi tuman bo'limi bosh mutaxassisi

НИКОҲ ВА НИКОҲ ШАРТНОМАСИ НИМА?

Никоҳ остонасидан ўтган жуфтлик гўё маънавий ола-ми битта бўлган шахсга айланмоғи керак. И.КАНТ

Ўзбекистон Республикаси “Оила Кодекси”нинг 6-боби, 29-36-моддалари илк мартаба миллий қонунчилигимизга “Никоҳ шартномаси” тушунчасини олиб кирди. Унга кўра, никоҳланувчи шахсларнинг ёки эр ва хотиннинг никоҳда бўлган даврида эр ва хотин никоҳдан ажратилган тақдирда уларнинг мулкий ҳуқуқ ҳамда мажбуриятларини белгилловчи келишуви никоҳ шартномаси, деб ҳисобланади.

Никоҳ шартномаси ёзма шаклда тузилиши ва нотариал тартибда тасдикланиши лозим. У тўйга қадар тузилса, никоҳ давлат рўйхатига олинган кундан бошлаб кучга ки-ради. Никоҳ даврида тузилган шартнома эса у нотариал тасдиқланган-дан бошлаб кучга ки-ради.

Оила қонунчилиги ФХДЁ органлари-да расмий рўйхатга олинган никоҳни қонуний тузилганлигини тан олади. Чунки, никоҳ тузилганлиги ҳақидаги гувоҳнома никоҳланувчи шахсларга эр-хотин мақомини берувчи, оилавий ҳуқуқ ва мажбуриятлар келтириб чиқарувчи, ФХДЁ органи томонидан бериладиган қонуний никоҳнинг мавжуд эканлиги факти ҳисобланади. Никоҳ шартномаси эса айнан эр-хотин томонидан эмас, балки ҳали оилавий муносабатлари ву-жудга келмаган никоҳланувчи шахслар томонидан ҳам тузилиши мумкин бўлган келишувдир. Никоҳ шартномаси ёзма шаклда тузилади ва нотариал тартибда тасдиқланади.

Оила кодексига асосан, “Никоҳ шарт-номаси” тузиш ихтиёрий ҳисобланади ва

уни тузишга мажбурлашга йўл қўйилмай-ди. Никоҳ шартномасини тузиш томонлар, яъни эр ва хотин учун мулкий ҳуқуқ ва маж-буриятларни келтириб чиқаради. Миллий қонунчиликка асосан никоҳ даврида то-пилган барча нарса биргаликдаги мулк саналади.

Бирок, никоҳ шартномасининг ўзига хос жиҳати шундаки, ушбу қоида томон-ларнинг хоҳиш-истагига қараб ўзгарти-рилиши мумкин. Қоида тариқасида никоҳ шартномасининг мақсади мулкни алоҳи-да ёки улушга алмаштириш ҳисоблана-ди. Шунингдек, мулкнинг айрим турлари ёки муайян даромадлар бўйича муноса-батлар ҳам ўзгартирилиши мумкин. Яъни биргаликда тадбиркорлик фаолияти би-лан шуғулланиш бўйича ўз ҳуқуқ ва маж-буриятларини белгилаб олиш, никоҳдан ажралганда эр ва хотиндан ҳар бирига бериладиган мулкни аниқлаб олиш никоҳ шартномасида акс эттирилади.

Мисол учун тадбиркорлик фаолияти-дан келиб тушадиган даромад ушбу фао-лиятни амалга ошираётган эр-хотиндан бирига ёки томонлар ажрашгандан сўнг квартира хотинга, машина эрга тегишли бўлади. Никоҳ шартномаси эр ва хотин-нинг мавжуд мол-мулкига нисбатан ҳам, бўлғуси мол-мулкига нисбатан ҳам тузи-лиши мумкин. Никоҳ шартномасида эр ва хотин рўзгор учун қилинадиган харажат-ларни ким тўлашини, бир-бирига бера-диган таъминот миқдорини, тадбиркор-лик фаолияти билан шуғулланилса, уни бошқариш, эгаллик қилиш ва турли хил шартномалар тузиш ҳуқуқлари кимда



бўлишини, шунингдек, никоҳ даврида ҳам, никоҳдан кейин ҳам мулкий муноса-батларни белгилаб олишлари мумкин.

Бугун никоҳ шартномаси ҳақида сал-бий фикрловчи фуқароларимиз ҳам бор. Айрим фуқароларнинг фикрича, бу фақат мулкий манфаатни кўзлайдиган, оилавий қадриятлар, аъналаримиз бузилишига олиб келадиган амалиёт саналади. Бо-шқалар эса, айниқса, тадбиркор никоҳ шартномаси бугун жуда керакли келишув эканлигини айтмоқда. Ҳуқуқшунослар фикрига кўра, никоҳланувчилар нафақат ўзи, балки фарзандлари, уларнинг кела-жанини ўйлаб ҳам никоҳ шартномаси ту-зишлари кераклигини таъкидлайди.

Бир сўз билан айтганда, никоҳ эркак ва аёл ўртасидаги муқаддас ришта бўлиб, никоҳ шартномаси эса муқаддас никоҳнинг бардавомлигини таъминлаш-га, эр ва хотиннинг мулкий ҳуқуқ ҳамда манфаатларини ҳимоя қилишга қаратил-ган ўзаро келишувдир. Зеро, бу келишув эр ва хотиннинг бошқа шахсларнинг ара-лашувисиз ўзаро хоҳиш иродасига асос-ланган.

Шалола РАҲМОНОВА,
туман ФХДЁ бўлими
2-тоифали инспектори

ЁШЛАРИМИЗ ТАРБИЯСИГА ЭЪТИБОРЛИ БУЛАЙЛИК!

Азизлар! Маълумки, ҳамма даврда ёшлар тарбияси муҳим бўлиб келган. Ёшларини қўлдан берган халқ келажagini йуқо-тади. Агар бепарво бўлиб, ги-ёҳвандлик иллати билан қаттиқ кураш олиб бормасак, бунинг оқибати аянчи бўлади. Биз оталар эса мусулмончилик даъ-восини қиламиз, лекин гоҳи-да фарзандларимиз тарбияси-га эътиборсиз бўлганимиздан улар беҳуда ишлар билан банд бўлиб юришибди. Ваҳоланки, бизнинг мусулмонийлик бурч-ларимиздан бири ёмон ишни кўрганда-уни ё қўли, ё тили билан ўзгартириш, ё дили би-лан ёмон кўришликдир.

Ҳозирда айрим ўқувчи ёшлар орасида гиёҳванд мод-далардан ташқари “Грамадон”, “Лирика”, “Регарен”, “Село-фен”, “Тропикамид” каби пси-хотроп дори воситалари истеъ-молига ўрганиш ҳолатлари уч-рамоқда. Бу дори воситалари-да ҳам маст қилиш ва ўргатиб қўйиш хусусиати бор. Кўча-қўйда бундай дориларни ис-теъмол қилаётганларни кўриб кўрмасликка олиш, менинг фарзандим бу дориларни ис-теъмол қилмайди, деб хотир-жамликка берилиш асло тўғри эмас. Чунки, гиёҳвандлик боло-си кенг тарқалса, ҳеч ким фар-зандидан хотиржам бўла ол-майди. Бу иллатларга амру маъруф, наҳий-мункар ёрда-мида қарши турайлик. Бу иш-ларни ислоҳ қилишни фақат ҳуқуқни муҳофаза қилиш орган-ларига топшириб қўйиб, ўзи-мизни четга олишимиз лоқайд-ликдир.

Маст қилувчи ичимликлар-нинг ҳукми, зарарлари оқибат-лари ҳақида барча оят ва ҳадислар ҳам гиёҳванд модда-ларга тегишлидир. Гиёҳванд-лик кишини секин-секин (гоҳи-да эса тезда) ўлимга олиб ке-лади. Бу нарсаларни истеъмол

қилиш билан ўз жонига ўзи қасд қилган бўлади. Бу эса кат-та гуноҳдир. Аллоҳ таоло Қуръ-они Каримда шундай буюрган: “Ўзингизни ўзингиз ўлдирманг” (“Нисо” сураси, 29-оят).

Яна бир ёмон жиҳат шуки, гиёҳвандлик сабабли келажак авлодлар ичида ақлий ва жис-моний ногирон болалар кўпая-ди. Бу кўз юмиб бўлмайдиган илмий исботланган ҳақиқатдир.



Шуни ёдда тутиш лозимки, гиёҳванд модда савдосига аралашган кимсалар, жумла-дан юқорида саналган дори-ларни шифо учун эмас, балки кайф қилиш учун сотиб олиша-ётганини била туриб ёшларга сотаётган баъзи дорихоначи-лар ҳаром мол топаётган ва Ал-лоҳнинг ҳукмига қарши чиққан ҳисобланади! Ҳаромдан топиб ўзи ва фарзандларига ҳаром едираётганлар, минггаб ёшларнинг гиёҳвандлик гир-добига ботишига сабаб бўла-ётганлар ўзларию ўзгаларнинг гуноҳларига шерикдирлар. Улар оз муддатда ўтадиган ду-нёдан кўра абадий охиратда-ги ҳисоблари ҳақида ўйлаш-

майдими?! Қуръони Каримда охират азоби қаттиқ эканидан огоҳлантириб айтилади: “Ҳад-дан ошган ва Парвардигор-нинг оятларига имон келтир-маганларни мана шундай жа-золағаймиз. Охират азоби эса, шубҳасиз, қаттиқроқ ва боқий-роқдир” (“Тоҳа” сураси, 127-оят).

Ёшлик даври айни тарбия пайтидир. Шу даврда уларни эътиборсиз ташлаб қўймасли-гимиз керак. Уларни халқига, динига фойдали, билимли-маърифатли, қўлидан иш кела-диган касб-кор эгаси қилиш бурчимиздир. Айниқса, бола-ларни, кейинги пайтда унути-

лаётган китобхонликка ўрга-тиш, яхши кишилар билан дўстлашишга қўмаклашиш му-ҳим. Пайғамбаримиз алайҳис-салом киши дўстининг дин-ди-ёнатига мослашиб кетиши ҳақида огоҳлантирганлар. Ёмон кишилар билан дўстлашиш-нинг оқибати ҳам ёмондир.

Ҳулоса шуки, ёшларнинг одоб-ахлоқи, таълим-тарбия-си, илм-маърифати билан ҳар бир ота-она ва масъуллар шу-ғулланса, келажакда бизнинг фарзандларимиздан ҳам буюк олиму алломалар чиқади, ин-шааллоҳ.

Фазлиддин
КАРОМАТУЛЛОХ,
туман бош имом-хатиби

МУРОСА – ОЛИЙ МЕЗОНДИР!

Кишилик жамияти шаклла-ниши ва ривожланишининг ҳар қандай босқичида дунёвийлик ва динийлик ўртасидаги муносабат масаласи, яъни инсоният тари-хининг барча даврларида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган. Бошқача айтганда, инсон ҳаёти мазмунини англаувчи бу икки қутб ўртасида муросага эришиш ҳар қандай жамиятнинг истиқбо-лини белгилловчи асосий сабаб-дир.

Баъзан турли экстремистик ғоялар таъсирида ушбу икки омил ўртасидаги муносабатлар кескинлашиб, мамлакатларни тўс-тўполонлар ва жаҳолат қам-раб олаётганини кўриб турибмиз. Айнан шунинг учун ҳам, экст-ремизм, шунингдек терроризм миллий чегараларни четлаб ўтиб, дунё ҳамжамияти хавфсизлиги учун ҳам таҳдид солиб келмоқда. Экстремизм ва терроризм бир-бири билан боғлиқ яъни бирин-кетин ривожланадиган босқич-лардир. Шундай экан, терроризм глобал миқёсга чиққан ҳозирги шароитда, ҳар бир фуқаро огоҳ бўлиши лозимки, ёт ғояларнинг замирида беғуноҳ одамларнинг қонини тўкиш, халқнинг меҳна-ти билан яратилган маданий бой-ликларни йўқ қилиш туради.

Аслида тинчликни сақламоқ динимизнинг асосий устуни, Аллоҳ таолонинг амри, Пайгам-бар салоллоҳу алайҳи васаллам умматига берилган буюк кўрсат-ма эди. Қуръон ва Суннат ҳукми-га кўра, мўмин-мусулмонлар-нинг бирор қавми ёмон кўриш-лари ёки ўша қавмларнинг му-сулмонларга душманлик қилиши уларга нисбатан зулм қилишга, ҳақларини поймол этишга сабаб бўлмаслиги керак. Абу Бакр ро-зияллоҳу анҳу Шом фатҳига жўнаётган қўшинга шундай на-сиҳат қилган эдилар: “Болалар-ни, аёлларни, қарияларни ўлдир-манг. Хурмо даракларига ўт қўйманг ва буталарни кесманг. Туяларни ва бошқа ҳайвонлар подасини ўлдирманг... Сиз ўзга ишлар, охират дунёсига хизмат қилиш билан машғул одамлар-ни (яъни бошқа дин вакиллари-ни) учратасиз. Шунда уларни ўз ҳолига қўйинг”.

Шак-шубҳа йўқки, Ўзбекис-тон Республикаси қисқа муддат-ларда ўз фуқаролари учун муно-сиб турмуш даражасини таъмин-лаш даражасига эришти. Амин-мизки, бу кунларга осон етиб келмадик. Шундай экан, бутунги кундаги тинчлик ва фаровонли-кни учун яратган эгамга чексиз ҳамду-санолар айтиш билан бир вақтда, чин мўмин сифатида дав-латимиз сарҳадлари ва тинчлиги-мизни жонимиз қадар асрамоғи-миз лозимдир.

М.БАДАЛБОВЕВ,
“Ҳўжа Муҳаммад Порсо” жомеъ
масжиди имом-хатиби



ҚАЙНОНАМ—ОНАМ, КЕЛИНИМ—БОЛАМ

Кейинги пайтларда никоҳ ва оила қуриш масаласига пан-жа орасидан қарайдиганлар кўпайиб бормоқда. Сўраб-су-ришгирмай, шошилиб қарор қабул қилиб, сўнгра пушай-монлик ўтига чидай олмай, беғуноҳ норасидаларни сарсон қилиб, ажрашиб кетаётганлар бор. Оилавий ажримларнинг яна бир жиҳати-оилага учин-чи шахслар аралашуви кучай-иб бораётгани туфайли юзгага келмоқда.

Масалала теранроқ назар ташласак... Ўзга уйга мосла-шаётган келинга энг яхши ус-тоз-қайнона ҳисобланади. Агар қайнона келинни “болам” деб бағрига босса, унга ўғлини эгаллаб олган киши сифати-да эмас, наслини давом эт-

тирадиган набираларининг онаси, еру кўкка ишонмай-диган ўғлининг жуфти ҳало-қ кўпайиб бормоқда. Сўраб-су-ришгирмай, шошилиб қарор қабул қилиб, сўнгра пушай-монлик ўтига чидай олмай, беғуноҳ норасидаларни сарсон қилиб, ажрашиб кетаётганлар бор. Оилавий ажримларнинг яна бир жиҳати-оилага учин-чи шахслар аралашуви кучай-иб бораётгани туфайли юзгага келмоқда.

Масалала теранроқ назар ташласак... Ўзга уйга мосла-шаётган келинга энг яхши ус-тоз-қайнона ҳисобланади. Агар қайнона келинни “болам” деб бағрига босса, унга ўғлини эгаллаб олган киши сифати-да эмас, наслини давом эт-

Энди масаланинг иккинчи жиҳатига қарайлик. Йиллар давомида йигиниб, элу халққа ош берган, остонаси тилло уй берган қайнонаю қайнотага қилинлар қизлик қиялпими? Қайнонанинг ҳар бир гапини уйдагиларга етказиб, хонадон сирини ҳар қадамда етказаёт-ган келинлар ҳам бор-да ичи-мизда. Қайнонага қизидек меҳрибон, ошу нонини тай-йёрлаб, иззатини рисоладагидек қилиб қўяётган ораста, бемор бўлганида шифохонага олиб ётиб, оқ ювиб, оқ тараб ўтир-ган тарбияли келинларимиз-ни кўп кўрганмиз. Қайнона она бўлмайди дейдиганлар ҳам, келин қиз бўлмайди дей-диганлар ҳам бор. Лекин қай-нонани келин она ўрнида

Fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanadigan mikrofirma va kichik korxonalar hamda mahalla fuqarolar yig'inlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktorining 2024-yil 15-oktabrdagi 10-mb-son buyrug'iga asosan 2025-yil 1-oktabr holatiga 4-fx shakli Fermer xo'jaliklari faoliyati to'g'risida choraklik hisobot hamda 2025-yil 3-chorak yakuni bo'yicha 4-kb (qx) Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida savolnomani tumandagi barcha fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar, shuningdek 2025-yilning 3-chorak yakuni bo'yicha 4-dx shakli Dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobotni tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlari internet tarmog'i Davlat statistika hisobotini elektron ko'rinishda yig'ish avtomatlashtirilgan tizimi "Estat 4.0" orqali, elektron raqamli imzodan foydalangan holda **2025-yilning 5-oktabr** sanasidan kechiktirmay taqdim etish talab qilinadi.

Tuman statistika bo'limi ma'muriyati Sizdan, hisobotlarning sifatililigini ta'minlash, o'z vaqtida qabul qilish maqsadida ushbu hisobotlarni imkon qadar muddatidan oldin taqdim etishingizni so'raydi. Mansabdor shaxslarning davlat statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215-moddasida belgilangan javobgarlikka sabab bo'lishi to'g'risida ogohlantiramiz!

Tuman statistika bo'limi

Kafolat muddati belgilanmagan tovar bo'yicha iste'molchi baribir huquqsiz qolmaydi

Agar tovar yoki mahsulotda kafolat muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, iste'molchi O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga tayangan holda o'z huquqlarini himoya qilishi mumkin. Bunday vaziyatda iste'molchi quyidagicha yo'l tutishi kerak:

- Sifat bo'yicha umumiy muddatga tayangan holda murojaat qilish**
 - Agar mahsulotda kafolat muddati belgilanmagan bo'lsa, u holda iste'molchining talabi mahsulotning oqilona foydalanish davri yoki amalga tadbiq qilinadigan xizmat muddati doirasida ko'riladi.
 - Odatda, qonun bo'yicha bu muddat mahsulotni sotib olingan kundan boshlab 2 yil ichida e'tiborga olinadi, agar boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa.
- Sotuvchidan yoki ishlab chiqaruvchidan talab qilish**
 - Tovar yaroqsiz chiqqan taqdirda, iste'molchi sotuvchidan: -tovarni bepul ta'mirlashni; -sifatli tovar bilan almashtirishni; -narxini qaytarishni talab qilishga haqli.
- Dallilarni saqlash**
 - Xarid qilinganini tasdiqlovchi chek, kvitansiya yoki boshqa hujjatlarni saqlab qo'yish kerak.
 - Agar chek berilmagan bo'lsa, guvohlarning ko'rsatuvlari yoki boshqa isbotlovchi hujjatlar ham qonunda kuchga ega.
- Shikoyat berish.**
 - Sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot rad etsa, iste'molchi: -tuman (shahar) iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatiga; -sudga murojaat qilishi mumkin.
- M.ZARIPOVA, Tuman Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi, xalq deputatlari tuman Kengashi deputati**



Qurilish maydonchalari hududida ish vaqti tugagandan so'ng sutkalik navbatchilikni amalga oshiruvchi shaxslardan tashqari ishchi- xizmatchilar va boshqa shaxslarning bo'lishi (yashashi) ta'qiqlanadi.

Ishlab chiqarish binolarini yonuvchi chiqindilardan doimiy tozalash, qo'lbola elektr isitish anjomlaridan foydalanmaslik, mumkin bo'lmagan joylarda tamaki mahsulotlarini chekmaslik, ochiq olovdan foydalanmaslik, kislorod ballonlarini to'g'ri saqlash, bo'yoqlar, karbid, taxta materiallarining birga saqlanishiga yo'l ko'ymaslik, elektr-gaz payvandlash ishlari davrida yong'in xavfsizligi qoidalari to'liq rioya qilish, qurilish hovlisida yosh bolalar o'ynab yurishlarini ta'qiqqlash va bu boradagi boshqa ko'pgina qoida-talablarga amal qilinganda yuz berishi mumkin bo'lgan yong'inlardan va ko'ngilsiz hodisalardan saqlanish mumkin.

Ishlab chiqarishlarda, umuman, hayotimizning barcha jabhalarida yong'in xavfsizligi qoidalari rioya qilishda mas'uliyatimizni oshiraylik. Bu bilan o'z hayotimizni, davlatimiz mulki hamda shaxsiy mulkimizni yong'in ofatidan asragan bo'lamiz.

J.TOG'AYEV,
"Xondiza" KB OYOXTTE bo'linmasi inspektori katta leytenant
M.BO'RIYEV,
"Xondiza" KB OYOXTTE bo'linmasi kichik inspektori oddiy askar

ТАРБИЯИ ДУРУСТИ ҶАВОНОН—ОМИЛИ МУҲИМ

Ба ҳамагон маълуму возеҳ аст, ки ҷавонон неруи бузурги бунёдкор ва пешбарандаи ҳаёти ҷомиа дар кулли кишварҳои дунё ба шумор мераванд ва бидуни ин кишр ояндаи кишварро та-савур кардан ғайриимкон аст. Ҳар киш-вари рӯ ба рушд овада заҳмати зиёд ба харҷ медиҳад, то насли навраси худ-ро ба ҳаёт ва меҳнат сазовор таълиму тарбия диҳад. Кунун ҷомиаи навини мо дар марҳилае қарор дорад, ки бунёд-кор дар меҳвари он қарор ёфта, не-руву қудрати ҷавонон аз руknҳои му-ҳимтарини амалияи ин ҳадафҳо ба ҳисоб меравад.

Хуб медонем, ки раванди ҷаҳони имрӯза мураккаб гардида, баҳри таг-бики ҳадафҳои гуногун неруи ҷавонон мавриди истифода қарор мегиранд. Аз ин рӯ, дар шароити имрӯза тарбияи дурусти ҷавонон яке аз ҳадафҳои ав-валиндараҷа ба ҳисоб меравад.

Имрӯзоҳа масъалаи таълим ва тар-бияи ҷавонон яке аз муҳимтарин масъ-алаҳо дониста мешавад. Зеро таъли-му тарбияи дурусту самарабахши ҷаво-нон барои инкишоф ва устувории дав-лату ҷомиа ба сифати яке омилҳои му-ҳим хидмат менамояд.

Тазақкур бояд дод, ки барои таъ-лиму тарбияи насли наврас саҳми субъектони тарбия, бахусус волидайн нақши ҳалкунанда дорад. Зеро тар-бияе, ки аз оила сарчашма мегирад, он ҳамчун нақш бар санг боқӣ мемо-над. Аз ин лиҳоз, ҳар як падару модар-ро лозим аст, ки барои таълиму тар-бияи фарзандон аҳамияти ҷиддӣ зо-ҳир намояд. Ба наздики аз саҳифаҳои интернет дастрас намудем, ки омӯзго-ри собиқадор сатҳи нақши падару мо-даронро дар таълиму тарбияи фар-занд муҳим дониста, якчанд нуктаҳои муҳими онро пешниҳод намудааст, ки зикр намудани онро дар ин мақола авло донистем:

Сармашки хуб будан барои фар-занд. Идеал ё сармашқ шудани пада-ру модар муҳимтарин омилӣ таълиму тарбия ва таъмини беҳдошти равони фарзанд ба шумор меравад. Волидайн муваззафанд, ки бо тавачҷуҳ ба ниёз-

ҳои фарзандони худ беҳтарин рафтор ва гуфторро аз худ нишон диҳанд. Вале, баръакс, вақте волидон дар тар-бияи фарзандон саҳлангорӣ мекунанд, дарвоқеъ, вазифаи худро анҷом наме-диҳанд.

Омӯзиши фарзанд. Имрӯз ҳар як волидайн масъул аст, ки роҳҳои дуру-сти омӯзиши фарзандонро муайян на-муда, дар роҳи маърифатнокии фар-зандони худ шароитҳои мусоидро фа-роҳам созанд.

Огоҳ будан аз масъулияти худ. Падару модар бояд донанд, ки барои таълиму тарбияи фарзандон масъул мебошанд. Аммо баъзе аз волидон



андеша доранд, ки бо таъмин намуда-ни фарзандон аз ҷиҳати моддӣ ва маъ-навӣ вазифаи худро пурра иҷро кар-даанд.

Ба андешаи мо, падару модар за-монне аз масъулияти худ огоҳ меша-ванд, ки барои таълиму тарбияи фар-занд маълумот ва маҳорату малакаи кофӣ дошта бошанд. Инчунин, аз ни-гоҳи мо, барои ҷавонон дар роҳи ра-сидан ба ҳадафҳои олий ва ҳамчун ша-хсияти комил шудан дар зиндагӣ ҷунин омилҳо зарур мебошанд:

Истифодаи самарноки вақт. Му-таассифона, баъзе аз ҷавонон дарк намеkunанд, ки вақти зиёд ва қиммати

хешро дар сомонаҳои интернетӣ паси ҳар гуна бозихову машғулиятҳои беса-мар мегузаронанд. Ин чанде аз зуҳу-роти ташвишвар дар ҷаҳони имрӯз аст, ки бояд сари ин масъала ҳар як ҷавони боақлу хирад андеша намояд. Вақте ҷавонон майл ба гуруҳҳои ифротӣ мекунанд ва ё соатҳо дар сомонаҳои ин-тернетӣ паси ҳар гуна корҳои ношоам машғули бозӣ мегарданд, албатта, аз сиёсат ва корҳои ҷамъиятӣ дар қанор мемонанд. Аз ин лиҳоз, ҷавонон бояд вақти худро барои иҷрои кор-ҳои му-фид, азҷумла азхуд кардани донишҳои касбӣ ва омӯхтани забонҳои хориҷӣ сарф намояд.



